

**O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI VA NAQQOSHLIK MAKTABLARI:
TARIXI, VILOYATLAR USHLUBLARI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH**

Abdusattorova Diyora Sanjar qizi

Guliston davlat universiteti, amaliy san'at yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'zbek xalq amaliy san'ati va uning naqqoshlik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Naqqoshlikning qadimiy ildizlari, turli viloyatlarning o'ziga xos naqsh uslublari, ustoz-shogird an'analari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada amaliy san'atning yosh avlodni milliy madaniyat va estetik did bilan tarbiyalashdagi roli ham ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek xalq amaliy san'ati, naqqoshlik, naqsh, ustoz-shogird an'analari, milliy madaniyat, estetik tarbiya, viloyat naqsh uslublari.*

**UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND WOODCARVING SCHOOLS: HISTORY,
REGIONAL STYLES, AND MODERN DEVELOPMENT**

Author: Abdusattorova Diyora Sanjar qizi

Second-year student, Applied Arts program

Gulistan State University

Abstract: *this article analyzes Uzbek folk applied arts and its woodcarving directions. It provides a detailed examination of the ancient roots of woodcarving, the distinctive pattern styles of various regions, master-apprentice traditions, and contemporary development trends. Furthermore, the study highlights the role of applied arts in educating younger generations with national cultural values and aesthetic sensibilities.*

Keywords: *uzbek folk applied arts, woodcarving, patterns, master-apprentice traditions, national culture, aesthetic education, regional pattern styles.*

O'zbek xalq amaliy san'ati o'zbek xalqining boy madaniy merosining ajralmas va eng qadimiy qismidir, u nafaqat milliy estetika va badiiy didning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, balki xalqning tarixiy tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy hayotdagi qadriyatlarini ifodalashda ham o'z o'rniga ega [1]. Ayniqsa, yosh avlodni badiiy jihatdan yetuk, Vatanga sadoqatli, milliy san'atga mehr va hurmat bilan qaraydigan shaxs sifatida tarbiyalashda amaliy san'atning o'zni beqiyosdir; bunda naqqoshlik, misgarlik, kandakorlik, zardo'zlik va kashtachilik kabi an'anaviy hunarlar yoshlar qalbida estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi [2]. Shu bilan birga, bu murakkab va sarmahsul jarayon o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur, tizimli va puxta o'qitilishini talab qiladi, shuningdek, olimlar, rassomlar va xalq ustalariga nafaqat ijodiy, balki pedagogik va metodik jihatdan yuksak vazifalarni yuklaydi.

O'zbek xalq amaliy san'ati turli yo'nalishlarga ega bo'lsa-da, uning eng muhim va ajralmas yo'nalishlaridan biri – naqqoshlikdir. Naqqoshlik san'ati qadimiy tarixiy obidalarda, xususan O'rta asr sharq me'morchilik obyektlarida o'zining betakrorligini namoyon etadi; bu yodgorliklarning ulug'vorligi, naqshlarning nafisligi va ranglarning uyg'unligi butun dunyo e'tiborini tortgan [3]. Naqqoshlik insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib, uning eng oddiy va barqaror printsiplari: uyg'unlik, mutanosiblik, naqsh va ranglarning takrorlanishi badiiy estetikani shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan [4]. Ko'p asrlar davomida naqqoshlik an'analari shakllanib, ustoz-shogird tizimi orqali avloddan-avlodga yetkazilgan va shu orqali nafaqat badiiy mahorat, balki milliy did va ijodiy tafakkur ham uzluksiz rivojlanib kelmoqda.

“Naqsh” so'zi arab tilidan tarjima qilinganda “gul” yoki “tasvir” ma'nolarini anglatadi, bu esa uning badiiy ifoda va bezakda insoniyat tafakkuri bilan qanchalik chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Naqshning paydo bo'lish tarixi aniq belgilanmagan bo'lsa-da, arxeologik tadqiqotlar va materiallar qadimiy davrlarda ham naqsh elementlarining mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi [5]. Shu jumladan, metall va sopol buyumlar, idishlar hamda qurollar paleolit va neolit davrlarida nafaqat oddiy handasiy shakllar, balki o'simliksimon naqshlar bilan ham bezatilgan. Naqshlar o'zining murakkab kompozitsiyasi orqali turli elementlar – o'simlik, hayvon, qush, geometrik shakllar va boshqa bezaklarni birlashtirib, alohida badiiy uslubni yaratadi. Ularning mazmuni va shakllanishiga qarab naqshlar o'simliksimon, geometrik, ramziy, gulli, girih va boshqa turli turlarga bo'linadi [6], bu esa naqqoshlik san'atining boyligi va xilma-xilligini yanada boyitadi.

O'zbekistonning turli viloyatlarida me'moriy yodgorliklar, kundalik idishlar va mehnat qurollarida naqshlar mavjud bo'lsa-da, Buxoro, Xiva, Farg'ona va Toshkent naqsh uslublarining o'ziga xos xususiyatlari aniq seziladi, bu esa har bir viloyatning madaniy merosini va badiiy tafakkurini ajratib ko'rsatadi [7]. Naqqoshlik an'analari asrlar davomida ustoz-shogird tizimi orqali avloddan-avlodga uzluksiz uzatilgan va shu tariqa milliy badiiy maktablar shakllangan. XX asrning o'rtalaridan boshlab esa naqqoshlik bezaklari yangi texnikalar, zamonaviy ijodiy yondashuvlar va dekorativ uslublar bilan uyg'unlashib, nafaqat milliy san'atni boyitdi, balki uning amaliy va estetik funksiyasini kengaytirdi [8]. 1990-yillardan boshlab naqqoshlar ijodiy markazlar va uyushmalarda birlashib faoliyat yurita boshladi, shu bilan birga Oqsaroy qarorgohi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston konsert zali [9], shuningdek O'zbekiston konsert va konservatoriya binolaridagi tarixiy obidalar restavratsiya qilinib, ularning badiiy ko'rkamligi va milliy meros sifatidagi ahamiyati yanada oshirildi.

Toshkent naqqoshlik maktabi o'zining nafisligi, ranglar uyg'unligi, murakkab kompozitsiyalar va o'simliksimon naqshlarning ko'pligi bilan ajralib turadi, bu esa uni boshqa viloyatlar naqsh maktablaridan aniq farqlantiradi. Toshkent naqshlarida ko'pincha yashil gama ishlatiladi, shuningdek, islomiy naqshlar kompozitsiyasida oygul, paxta, bofta, bargli gullar va murakkab girih naqshlari keng qo'llaniladi, bu esa naqshlarning badiiy boyligi va estetik uyg'unligini ta'minlaydi [10]. Toshkent naqqoshlik maktabining

shakllanishi va rivojlanishida mashhur ustozlar: Yoqubjon Raufov, Olimjon Qosimjonov, Jalil Hakimov, Toir To'xtaho'jayev va boshqalar muhim rol o'ynagan, ular nafaqat ustoz-shogird an'analarini davom ettirib, balki zamonaviy ijodiy yondashuvlarni ham maktabga tatbiq qilganlar.

Xiva naqqoshlik san'ati Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg'ona naqsh maktablaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xiva naqshlarida yashil va zangori ranglar ustunlik qilishi, shuningdek islomiy naqshlarning spiralsimon va mayda tafsilotlar bilan ishlanishi bu maktabning o'ziga xos estetikligini ta'kidlaydi. Xivadagi buyuk naqqoshlardan Adulla Boltayev, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va Ro'zimat Masharipov ushbu maktabning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan [11]. Ular o'z ijodiy yondashuvlari va ustoz-shogird an'analarini davom ettirish orqali Xiva naqqoshlik san'atini yanada boyitganlar.

Buxoro naqshlarining kompazitsiyalari murakkabligi, tartibli va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ushbu naqshlarda girihlar aniq va puxta o'lchamda ishlanadi, shuningdek, o'simliksimon naqshlar – yaproqlar, gulbarglar va mevalar alohida e'tiborni tortadi, bu esa Buxoro naqshlarining nafisligi va estetik boyligini ta'kidlaydi [12]. Samarqand naqshlari esa o'zining jonli guldorligi, barg va gullarning harakatchanligi bilan boshqa viloyatlar naqshlaridan farqlanadi, bu esa Samarqand naqqoshlik maktabini o'ziga xos badiiy uslub bilan boyitadi [13]. Samarqand naqqoshlik maktabining shakllanishida Rahmanqul, Jamoliddin, Abduzoxid, Sharif, Alimjon, Boqi va Bolta Jalilov kabi buyuk ustozlarning hissasi katta bo'lib, ular o'zlarining ijodiy merosi orqali maktabning nafisligini va murakkab uslubini avlodlarga yetkazganlar.

Naqqoshlik san'ati o'zining keng ko'lamliligi bilan ajralib turadi; u oddiy ro'zg'or buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob va bino bezaklarigacha keng qo'llanilgan [1]. Oldingi xonliklar davrida ustozlar Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand kabi madaniy markazlarga yig'ilib, o'z bilim va mahoratlarini baham ko'rgan, shuningdek yangi avlod ustozlarni tarbiyalash orqali naqqoshlik an'analarini davom ettirganlar [6]. Shu tarzda naqqoshlik san'ati nafaqat dekorativ vazifani bajarib qolmay, balki kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarini ifodalashga xizmat qiladigan, milliy madaniyat va estetik didni shakllantiruvchi muhim badiiy vosita sifatida rivojlanib kelmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 4-fevraldagi Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida Rishton kulolchilik maktabi va usta-hunarmandlarning ijodi bilan yaqindan tanishilishi, shuningdek, ustoz-shogird an'analarini rivojlantirish va milliy san'atimizni chet ellik sayyohlarga namoyish etish bo'yicha berilgan topshiriqlar amaliy san'atning bugungi kundagi ahamiyati va uning ijtimoiy, madaniy va ta'limiy funksiyalarini yanada oshirishini ko'rsatadi. Bu kabi tashabbuslar nafaqat milliy merosni asrab-avaylash, balki yosh avlodni estetik tafakkur va badiiy did bilan tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [7]. Shu bilan birga, O'zbekistondagi amaliy san'at maktablari va kollejlari yosh avlodni milliy san'at bilan yaqindan tanishtirishga va ularni badiiy-estetik did bilan tarbiyalashga xizmat qilmoqda [9]. Ma'naviy yuksaklikka ega, zamonaviy ilm-fanni puxta egallagan va boy

milliy merosni qadrlay oladigan avlodni shakllantirish orqali nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun xalqning kelajagi porloq, istiqboli esa buyuk bo'lishi ta'minlanadi. Shu yo'l bilan milliy madaniyatimiz va amaliy san'atimizning avloddan-avlodga uzluksiz yetkazilishi kafolatlanadi.

O'zbek xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik, milliy madaniyatning boy merosi va estetik tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Naqqoshlik san'ati qadimiy ildizlarga ega bo'lib, viloyatlar bo'yicha shakllangan o'ziga xos uslublar ustoz-shogird an'analari orqali avloddan-avlodga uzluksiz yetib kelgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva naqsh maktablaridagi farqlilik, nafislik, rang uyg'unligi va murakkab kompozitsiyalar amaliy san'atning boyligi, badiiy estetik qiymati va xilma-xilligini yaqqol namoyon qiladi. Bugungi kunda naqqoshlik san'ati nafaqat dekorativ vazifani bajarib qolmay, balki milliy g'oya, falsafiy tushunchalar va inson tafakkurining badiiy ifodasini amalga oshirish vositasiga aylanib bormoqda. Shu bois milliy amaliy san'atni rivojlantirish, uni avlodlarga yetkazish, yoshlarni milliy madaniyat va estetik did bilan boyitish hamda zamonaviy sharoitda ustoz-shogird an'alarini davom ettirish muhim mas'uliyat hisoblanadi. Shunday qilib, O'zbekistondagi amaliy san'at maktablari va kollejlari kelajak avlodning estetik, ma'naviy va badiiy yetukligini ta'minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amaliy san'atning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ham e'tibordan chetda qolmaydi. XXI asr texnologiyalari va raqamli vositalari naqqoshlik san'atiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda: 3D-modellashtirish, raqamli dizayn va interaktiv taqdimotlar orqali naqqoshlik elementlarini tahlil qilish, saqlash va global auditoriyaga yetkazish osonlashmoqda. Bu esa nafaqat tarixiy merosni asrab-avaylash, balki yosh ustozlar va talabalar uchun ijodiy innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini yaratadi. Shu tarzda, an'anaviy uslublar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib, amaliy san'atning estetik, pedagogik va madaniy ahamiyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik, milliy madaniyat va estetik tarbiya jarayonida beqiyos ahamiyatga ega. Naqqoshlik san'ati qadimiy ildizlarga ega bo'lib, viloyatlar bo'yicha o'ziga xos uslublar shakllangan va ustoz-shogird an'analari orqali avloddan-avlodga yetib kelgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva naqsh maktablaridagi farqlilik, nafislik, rang uyg'unligi va murakkab kompozitsiyalar amaliy san'atning boyligi va xilma-xilligini namoyon etadi. Naqqoshlik san'ati nafaqat dekorativ vazifani bajarib, balki milliy g'oya va falsafiy tushunchalarni ifodalash vositasiga aylanib bormoqda, bu esa yosh avlodning estetik tafakkurini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Milliy amaliy san'atni rivojlantirish, uni avlodlarga yetkazish va yoshlarni badiiy-estetik did bilan tarbiyalash jamiyatning madaniy va ma'naviy rivoji uchun zarurdir. Amaliy san'at maktablari va kollejlari kelajak avlodning estetik, ma'naviy va badiiy yetukligini ta'minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu yo'l bilan ustoz-shogird an'analari davom ettiriladi, milliy san'atimiz saqlanadi va yosh avlodni zamonaviy ilm-fan bilan boyitish orqali ularning milliy o'zlik va g'oya-madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalanishi kafolatlanadi.

ADABIYOTLAR \ REFERENCES:

1. K.G'ulomov. Amaliy san'at. T.: "Iqtisod-moliya", 2007.
2. S.Abdirasilov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T.: "Ilm ziyo", 2011.
3. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O 'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O 'RNI." WORLD OF SCIENCE 6 (2023): 87-90.
4. Baxtiyarova, F. "MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS." Ilm-Fan Va ta'lim 1.1 (2023).
5. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION / N. Jumaboyev. – International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – № 4. – P. 1489-94.
6. Ibadullaeva , Z. ., & Jumaboev , N. . (2025). UZBEK NATIONAL ART AND ITS SCHOOLS. New Uzbekistan Journal of Academic Research, 2(2), 127–130. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/yoitj/article/view/68532>.
7. Nusharov Bobir Bolbekovich. (2025, октябрь 23). O'ZBEKISTON YOSHLARINI MILLIY MADANIYAT VA SAN'AT ORQALI TARBIYALASH ISTIQBOLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17421764>.
8. Xoljigitovich, Mirzakulov Islomjon. "THE USE OF DECORATIVE TILE-COVERED THERMAL PANELS FOR BUILDING FAÇADE INSULATION." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 47.1 (2025): 191-197.
9. Berikbaev, Alisher Alikulovich. "Development of competence skills of art education students." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.4 (2020): 6984-6988.
10. Alimjanovna, Yusupova Shoxista. "The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev)." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
11. Bolbekovich, N. B. . (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42>.
12. Имомов Ф. CHIZMACHILIK FANINING O 'QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA'SIRI //Свет науки. – 2025. – №. 10 (45).
13. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIKLARNING O'ZARO PARALLELLIGI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495–500. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76>.